

“ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI” ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

IPAKNI TABIIY RANGLARGA BO’YASH TEXNOLOGIYASI

Gulnora Abdumalikovna Hakimova
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi katta o’qituvchisi

Резюме: В данной статье речь идет о технологии окрашивания шелка. Также говорится об используемых материалах и о секретах окрашивания природным путем.

Summary: This article deals with the technology of dyeing silk. It also talks about the materials used and the secrets of staining in a natural way.

Ключевые слова: Шелк, адрас, вышивка, медь, хум, икат, ремесленник.

Keywords: Silk, adras, embroidery, copper, hum, ikat, artisan.

Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz ipakni bo’yashda xumlardan foydalanishgan. Hozirgi kunlarda bo’yashni mis qozonlarda yoki sirlangan idishlarda amalga oshirsa bo’ladi. Mis qozonlar yoki sirlangan idishlardan foydalanganda, ranglash turlariga qarab hajmi yoki soni turlicha bo’ladi. To’qimachilikda (abrli bo’yoqlar) 50-100 litr hajmli idishlardan foydalanish kerak, chunki bo’yaladigan ipak iplar hajmi katta bo’lishi mumkin, shu sababli ularni bitta idishga solib bo’yaladi. Agar bo’lib solinsa, rang bir-biridan keskin farq qilib, to’qroq yoki ochroq tusli rang paydo bo’lishi mumkin.

Kashtachilikda bo’yaladigan ipak kalava holatida bo’ladi. Ranglash jarayonida idishga rangning miqdoriga va solinadigan suvning miqdoriga katta ahamiyat beriladi. Ranglash jarayonida ishni ohorlash, achchiq toshda pishirish bitta idishda, sariq, qizil va ko’k rangga bo’yashda bitta idish va boshqa ranglarda bo’yashda yana bir idishda bo’yalgani ma’qul. Bu idish yordamida bo’yoqlar va achchiq toshni maydalash (tuyish) uchun foydalaniladi. Ipak bo’yashda tarozi eng zarur bo’lgan asboblardan biri bo’lib hisoblanadi. Bo’yash jarayonida achchiq toshni yoki bo’yoqni kerakli miqdorini to’g’ri o’lchab olish uchun va mo’ljallangan rangni me’yorida olish uchun mo’ljallangan.

Sopol xumlar yoki plastmassa idishlar ranglashdan keyin bo’yoqli suvlarni saqlashga, yomg’ir suvlarini to’plashga zarur bo’ladi. Bunda xumlarni va platmassa idishlarni soyali va qorong’i joylarda, yaxshisi yerto’lada saqlansa, suvning xususiyatlari buzilishini kamaytiradi. Suv haroratini o’lchagich asbobining bo’yoqchilikda hizmati beqiyosdir. Bo’yash jarayonida suv haroratini o’lchash uchun mo’ljallangan asbob qo’ldan tushmaydi. Suvni haroratini to’g’ri o’lchash mo’ljaldagi rangni olishga yordam beradi. Tayoqchalar yog’ochdan yasalgan bo’lib, ranglash jarayonida kovlash, ranglanganidan keyin ishni qoqishga yordam beradi. Har bir rang uchun alohida tayoqchalar ishlatiladi. Ish jarayonida zanglamas tayoqchalardan ham foydalanilsa bo’ladi, chunki ular o’ziga rangni shimimaydi. Ipaklarni quritish uchun maxsus xonalar kerak bo’ladi. Ipak, ip yoki jun achchiq toshda pishirilganda yoki ranglangandan so’ng salqin, soyali, qorong’i xona zarur bo’ladi.

Ish qorong’i xonada ranglashgacha va chayish jarayonigacha 7-10 kun saqlanadi. Sababi, bunda ipak rangni yaxshi oladi va rangni o’zida yaxshi saqlaydi. Indigo rangini bo’yashda rezina qo’lqoplardan foydalanish kerak, chunki, gidrosulfid qo’lga aksta’sir berib, terini kuydirishi mumkin. Ipak bo’yashda issiqlikga bardosh beradigan o’lchovli cho’michlardan foydalanish kerak.

Bo'yash jarayonida suvning tozaligi katta ahamiyatga ega, chunki suvning tozalik darajasi ham bo'yoqga katta ta'sir etadi. Ba'zi ipak bo'yash bilan shug'ullanadigan ustalar, yomg'ir suvini ishlatishni ma'qul ko'rishadi, lekin hozirgi kunlarda yomg'ir suvi ham oddiy jumrak suvidan toza bo'lishiga kafolat yo'q. Shunga qaramay, tabiiy va maxsus suv sifatida yorqin va tiniq rang olish uchun yomg'ir suvini plastik idishlarda to'plab ishlatib bo'ladi, chunki yomg'ir suvi bunda o'z xususiyatlarini saqlab qoladi.

Bo'yalgan ipak, jun, paxta ip va gazlamalarni chayish yoki yuvishda o'sha bo'yalgan suv tarkib saqlangan suvda chayish kerak. Aks xolda ranglar o'zgarishi mumkin. Idish yuvish uchun ishlatiladigan suyuqlik bo'yalgan narsalarni chayish uchun eng qulay vosita bo'lishi mumkin, chunki uning tarkibida neytrallik xususiyat bor. Ipakni oqlash va ipak, ip, jun mahsulotlarni ranglashdan oldin ipak, ip, jun yoki to'qilgan matoni achchiq toshda, qozon yoki sirlangan va zanglamas idishlarda qaynatib olish kerak. 1 kg ipakni qaynatish uchun 250-300 gramm achchiqtosh zarur bo'ladi. Achchiqtosh O'zbekistonning hamma bozorlarida keng uchraydi. U yurtimizga Eron va Rossiyadan keltiriladi, asosan achchiqtoshni ba'zi kasallikni davolashda va ichimlik suvni qayta ishlash korxonalarida suvni tozalash maqsadida ishlatiladi. Achchiqtosh xovonchada maydalanib, qum xolatiga keltiriladi. Alohida kichkina idishda qaynatib eritib olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Eritilgan moddani katta idishga solib 120 gradusda qaynatiladi va shu holatda 30-45 minut qaynatiladi. Yuqori haroratda qaynatilgach, sovutilib polietilen xaltachalarga bakteriyalardan saqlash uchun saqlanadi. Soya, salqin va qorong'i xonalarda polietilen xaltachalarda 6-8 kun muddat saqlanadi. Yaxshi ranglash uchun eng ko'pi bilan 8 kun saqlash maqsadga muvofiqdir. Kimyoviy ranglarda achchiqtosh rangni mustaxkamlovchi vazifani bajaradi, tabiiy ranglarda achchiqtosh rangni so'rib oluvchi vazifasini bajaradi. Agar siz tabiiy rangda ishlay boshlasangiz rangga tayorlash jarayonida ipakni achchiqtoshga solingandan keyin, qo'lda siqib olsangiz qo'lingizni quruqlashganiga guvoh bo'lasiz.

Ipakni oqlash (pishirish) jarayonini amalga oshirish uchun, 50-yillargacha oxorlash uchun tabiiy ishqordan foydalanishgan, Farg'ona vodiysida qirq bo'g'im o'simligi kulidan keng foydalanilgan. Buxoroda, Boysunda va Rishtonda ishqorni topish osonroq. Tabiiy ishqorlangan ipak rangni yaxshi oladi va ipakning sifati yaxshi saqlanadi. Hozirgi mahalda xunarmandlarimiz temir sodasidan keng foydalanishadi.

Ipakni oqlash, ya'ni yuvish kerak, bu uchun qozon yoki sirlangan va zanglamas idishlar zarur bo'ladi. Idish 50 litrli bo'lsa ipakdan 5 kg, temir sodasidan 200 gramm, 70 gramm kir sovun zarur bo'ladi. Idishga suvni quyib, olov yoqamiz, suv isigach, sovunni maydalab sodani qo'shib solamiz. Sovun erib ketishi zarur, sovun erigach 50-60 gradusda ipakni tayoqchalar yordamida aylantirib turamiz. 30 minut qaynagandan keyin idishdan ipaklarni olamiz va boshqa qozonda isigan, qaynashga yaqin bo'lgan suvda chayiladi. So'ngra ipak tayoqchalarda ikki kishi yordamida yaxshilab qoqib silkitiladi. Ipakning holati qurigandan keyin mayin bo'lsa yaxshi yuvilgan, ipaklar bir-biriga yopishgan dag'al tursa qaytadan soda va sovunli suvda yuvish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Вышивка шёлком-путь к прекрасному. "Педагогик маҳорат." Назарий ва илмий-методик журнал. Бухоро. 2013. №1 Б.66-69
2. Психология цвета и роль цвета в нашей жизни. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. Курск 2015. Апрель №4 Б.76-79
3. Узбекская ручная вышивка - могучая ветвь на древе народного творчества. Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2016. 1-июнь. №11(115) Б.1623-1625
4. Искусство, расписанное каплей. Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2016. 1-Январь №12 (116) Б. 988-990

5. Психология и символика цвета. Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2018. Март № 9 (195)
6. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана. Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2018. Апрель № 15 (201)
7. Ковроделие – искусство с многовековой историей. Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2018. Октябрь № 43 (299)
8. Бухоро қолинбофлиги. Мозийдан садо журнали, 3/87 2020. 1-сон – Б.42-45.
9. Moziydansado@mail.ru
10. Khakimova G.A. Ismail Somoni mausoleum - the heart of Bukhara historical monuments. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. February, 2021-iv. issn 2181-975
11. Khakimova G.A. The history of beautiful writing. Young scientist. International scientific journal. Kazan-2016. 1-November No.21
12. Ядгаров Н. Д., Хакимова Г. А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана //Молодой ученый. – 2018. – №. 15. – С. 272-275.
13. Хакимова Г. А., Кадирова Н. А. НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 5 (64). – С. 78-80.
14. Шомуродов, О. Н., Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Хакимова, Г. А. (2021). МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦВЕТОВ И КРАСКИ ПРИ ОБРАБОТКЕ ИЗОБРАЖЕНИЙ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 80-82.
15. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 10, 1-4.
16. Avliyakulova N. M. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 179-181.
17. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. *European science*, (2 (58)), 38-40.
18. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
19. Хакимова, Гульнора Абдумаликовна, and Шерали Наимович Аvezов. "ПСИХОЛОГИЯ ЦВЕТА И РОЛЬ ЦВЕТА В НАШЕЙ ЖИЗНИ." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 4 (2015): 76-79.
20. Muzafarova A. N. FORMS OF PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR VISUAL AND CREATIVE ACTIVITIES //Euro-Asia Conferences. – 2021. – С. 119-123.
21. Samadvich, A. S., Nayimovich, A. S., & Nosirovna, S. M. (2021). Technology Of Teaching Fine Arts And Science Classroom. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(2), 109-111.
22. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. *International Engineering Journal For Research & ...*, 2020.
23. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АХОЛИ ТУРАР ЖОЙЛАРИИНТЕРЬЕР БЕЗАГИ (ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ УЙ - МУЗЕЙИ МИСОЛИДА).
24. Ibadullaeva Shaxnoza Pshamovna. Avlikakulova Nafisa Muzafarovna., Sobirova Sharofat Umidullayevna. HARMONIZATION OF TYPES OF FABRIC ART PROCESSING TO

25. N.J. Yadgarov 2021. METHODS USING THE 3DS MAX PACKAGE IN TEACHING PROJECTION DRAWING IN SCHOOL. Euro-Asia Conferences. 1, 1 (Jan. 2021), 124–127.

26. Mamatov, Dilshod. "PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION." *Theoretical & Applied Science* 9 (2019): 281-285.

27. Ibadullaeva, S. I. (2022). The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 130-133.

28. Ибадуллаева, Ш. И., and А. Н. Мухаммедова. "ТВОРЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." *International journal of conference series on education and social sciences (Online)*. Vol. 2. No. 2. 2022.

29. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.

30. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.

31. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.